

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGILIZ TILINI O'RGATISH METODIKALARI

Bosimbekova Ozoda Odiljon qizi

Guliston Davlat Pedagogika Insituti

“Xorijiy til va adabiyot” fakulteti 1-bosqich talabasi

ANATATSIYA

Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari keltirilgan bo'lib, bugungi kunda ingliz tili dunyo tiliga aylanib bormoqda, shu sababli uni bolalarga kichikligidan ya'ni bog'cha yoshidan boshlab o'rgatish lozim. Maqolada shu haqida foydali ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Metod, tizim, bolalar, metodika, texnologiya, kreativlik, zamonaviy.

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganuvchilar soni jadal o'sib bormoqda va bu davr talabiga aylanmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi, shu tufayli mamlakatimizda ham chet tillarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013-2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isboti. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytkanlaridek: “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas”.

“Bola boshidan ma'lum”-deganlaridek maktabgacha ta'lim yoshlarimizning ta'lim tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. Chet tili hozirda faqatgina maktab, kollej, universitet yoki insitutlarda emas balki bir qancha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalash omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi.

METODLAR

Barchamizga ma'lum kichik yoshdagi bolalar tilni organish jarayoni juda oson va ular yangi narsalarni tezlikda ilg'ab, o'rganib olishadi. Yaqin vaqtgacha tillarni orgatish maktab, universitet yoshidagi o'rganuvchilarga qaratilgan edi. Endilikda ota-onalar farzandlarining til organishlarini yanada ertaroq boshlashga harakat qilishmoqda. Til o'rganish ham, albatta, yoshga bog'liq. Psixologlarning aytishicha bollarda asosan taqlid qilish xususiyati kuchli aynan shu sababli kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtira oladilar. Shuni e'tiborga olish kerakki, kichik yoshdagi (4-7) bolalar ma'lumotlarni tushunib emas, balki mexanik

tarzda yod olishadi. Shu sababli kichik yoshdagi bolalarga dastlab ingliz tilini o'rgatishda grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rganishning dastlabki paytlaridayoq bolani qiziqishlari so'nadi va zo'riqadi.

Bolalarga xorijiy tilni mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi ba'zi metodlardan foydalanish mumkin:

-ko'rgazmali qurollar, plakatlar, poster va kitoblar orqali

-ko'zimizga ko'p ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p marotaba ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish. Misol uchun: muzlatkich(refrigerator), ruchka(pen), kitob(book), oyna(window), eshik(door) va shu kabi buyumlarga ularning inglizcha nomlarini yozish. Bu kabi buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va ko'p foydalanishi natijasida bola bu so'zlarni beixtiyor yodida saqlab qoladi.

-qo'shiq va sher'lar orqali tushuntirish yoki o'rganishga qiyin bo'lgan birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib kuylash. Bu usul orqali bola alifboni osonlik bilan yodlay oladi

-aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar.

-qiziqarli multfilmlar: Bolalar multfilmdagi sozlarni to'lliq anglamasalar ham ular multfilm qahramonlari qilayotgan hatti harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qilishadi. Bu esa bolani til organishga bolgan qiziqishini yanada oshiradi

-topishmoqlar: Har bir bolada topishmoqning javobini topishga bolgan qiziqish yuqori boladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga hoh o'zbekcha, hoh inglizcha topishmoq aytisada, bolalar u topishmoqning javobini ingliz tilida aytishlari kerak.

-yangiliklar orqali: Barchamiz bilamizki, bolalar juda qiziquvchan. Ular doimiy birxillikdan tezda zerikadi. Shu sababli ularga har doim ham bir turdagi usullardan foydalangan holda dars o'tish emas, balki bu usullardan yirolashib, kreativlikka asoslanga holda dars o'tish lozim.

-yana bir samarali metodlardan biri bu ularning o'zlari yoqtirgan va sevib o'ynaydigan narsalaridan foydalangan holda o'rgatish. Misol: bola o'zining sevimli o'yinchog'i yoki kitobi haqida o'rganayotganda unda qiziqish yuqori bo'ladi va osonlik bilan yoqtirgan buyumi orqali eslab qoladi.

Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munisabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o'ynashdir. O'yin orqali siz bolaning so'z boyligini oshirishingiz, she'rlar, qo'shiqlar yodlatishingiz, diqqatini jamlashingiz mumkin bo'ladi. Chet tlini o'rgatishda o'yin usulidan foydalanish ta'lim faoliyatiga zid emas, balki u bilan bog'liq. Yosh bolalar tabiatdan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shunday ekan ularga berilayotgan ma'lumotlar, albatta, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda yetkazilishi va rangli materiallar, rasimli qo'llanmalar bevosita ta'lim berish jarayonida bo'lishi lozim. Bu degani maktabgacha ta'lim muassasidagi yoshlarni metodikasi, avvalo, ularning qiziqishlariga bog'liq.

XULOSA

Xulosa qilib aytkanda kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi va foydali usullardan foydalangan holda dars o'tish bolalarning bilim egallashlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bolalarning qiziqishi ularning kundalik hayotda bajarayotgan ishlariga, o'yinlariga asoslangan. Shuning uchun ilmiy yo'nalishni ham kundalik yumushlarga, qiziqishlarga bog'lab o'rgatish ulsrning pedagogning mahoratlariga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-39-55-sonli qarori.
3. <https://lex.uz/docs/-3923110>
4. <https://moluch.ru/archive/138/39159/>

